

MOSLASHGAN ANIQLOVCHINING SHAXS-SON KATEGORIYASIDA IFODALANISHI

Maxmudova Gulmira Jaxon qizi
Samarqand Davlat Chetillar instituti
Yaqin sharq tillari kafedراسi magistranti
E-mail: parijon786@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada arab tilida son kategoriyasining moslashgan hamda moslashmagan aniqlovchilarda ifodalanishi to'g'risida so'z boradi. Bunda aniqlovchi va aniqlanmishning o'zaro munosabati, turlari va son katekoryasi vositasida qayday grammatik shaklga ega bo'lishi shu bilan bir qatorda xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi.

Tayanch iboralar: aniqlanmish, sifat, nisbiy sifat, moslashgan aniqlovchi, moslashmagan aniqlovchi, birlik, ikkilik, ko'plik, muzakkar, muannas.

Barcha tillardagi singari arab tilida ham aniqlovchi va aniqlanmish munosabati mavjud bo'lib, ushbu atamalarning morfologik xususiyatlari o'ziga xosdir. Ular ikki guruhga ajratiladi:

1. Moslashgan aniqlovchi.
2. Moslashmagan aniqlovchi.

Aniqlovchilar aniqlab kelayotgan ismlar aniqlanmish deb ataladi. Moslashgan aniqlovchilar ko'p hollarda asliy yoki nisbiy sifatlar bilan, tartib sonlar, aniq va majhul nisbat sifatdoshlari yoki aksariyat holatlarda esa ko'rsatish olmoshlari orqali ifodalanadi[2.68]. Yuqorida sanab o'tilgan aniqlovchi vazifasida kela oladigan so'zlarning barchasi aniqlanmish bilan jinsda, sonda, kelishikda hamda holatda moslashishi lozim. Bulardan faqatgina olmoshlar aniqlanmishdan oldin joylashib, qolgan barchasi aniqlanmish so'zdan keyin keladi[3.73].

Moslashgan aniqlovchilarning aniqlanmish bilan munosabatini quyidagi ketma-ketlikda ko'rib chiqamiz:

1. Jinsda moslashish. Aniqlanmish so'z muzakkar jinsida bo'lsa, aniqlovchi ham muzakkar jinsida, agar muannas jinsida bo'lsa muannas jinsida bo'ladi. Masalan:

كتاب جديد – yangi kitob,
مدرس مجتهد – harakatchan o'qituvchi,
طالبة جميلة – chiroyli toliba,
هذه السيارة – bu mashina singari.

2. Kelishikda moslashish. Aniqlanmish so‘z bosh kelishikda bo‘lsa, aniqlovchi ham bosh kelishikda, qaratqichda bo‘lsa, qaratqich kelishigida, tushum kelishigida bo‘lsa aniqlovchi ham tushum kelishigida ifodalanadi[5.45].

هذا الحصان - bu ot,

مهندسين جدد - yangi muhandislarning,

شجرة طويلة - uzun daraxtni singari.

3. Sonda moslashishi. Aniqlanmish birlikda bo‘lsa, aniqlovchi ham birlikda, ikkilikda bo‘lsa, ikkilik shaklda, ko‘plikda bo‘lsa ko‘plik shaklda bo‘ladi.

طبيب كبير - طبيبان كبيران - أطباء كبار

بنت صغيرة - بنتان صغيرتان - بنات صغيرات

4. Holatda moslashish. Aniqlanmish aniq holatda bo‘lsa, aniqlovchi ham aniq holatda, noaniq holatda bo‘lsa, noaniq holatda bo‘ladi.

حقيبة جديدة - الحقيبة الجديدة

حقيبتان جديدتان - الحقيبتان الجديدتان

حقائب جديدة - الحقايب الجديدة.

Ma’lumki arab tili grammatikasi so‘zlarning yasalishi jihatidan boshqa tillardan tubdan farqlanib turadi. Shu o‘rinda son kategoriyasi hamda uning turlarini o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

و ينقسم الاسم ايضاً الى ثلاثة أقسام:

1 - مفرد؛ نحو: فاضل وفاضلة

2 - و مثنى؛ نحو: فاضلان، أو فاضلين، و فاضلتان، أو فاضلتين.

3 - و جمع؛ نحو: فاضلون، أو فاضلين، أو فضلاء.

“Va ism ham uch qismga bo‘linadi:

1 – Birlik; masalan, fozil va fozila.

2 – Ikkilik; masalan, ikki fozil kishi yoki ikki fozil kishini va ikki fozila ayol yoki ikki fozila ayolni.

3 – Ko‘plik; masalan, fozil kishilar yoki fozil kishilarni[6.15].

Arab tilida son kategoriyasi uch turga ajratilib o‘rganiladi. Mazkur kategoriya harf ya’ni yordamchi so‘z turkumlaridan boshqa deyarli barcha turkum so‘zlarida mavjud. Shu boisdan, xuddi o‘zbek tilidagi kabi birlik yoki ko‘plikdagi so‘zlarning aniqlovchilarini sintaktik tahlili va ahamiyati qanchalik muhim bo‘lsa, arab tilida ham juda muhim sanaladi. O‘zbek tilida aniqlovchi deb hokim bo‘lakdan anglashilgan narsaning qandayligi, nimaga yoki kimga qarashli ekanligini bildirib kelib, qanday? qanaqa? qaysi? qancha? nechta? kimning? nimaning? kabi so‘roqlarga javob bo‘luvchi so‘zlarga aytiladi[4.345].

O‘zbek tilida aniqlovchilar uch turga bo‘lib o‘rganiladi. Ammo arab tilidagi singari aniqlovchilar aniqlanmishning soniga, holatiga, kelishik shakliga va jinsiga moslashib kelmaydi. Masalan: mohir chavandozlar deyilganda mohir aniqlovchisi birlik sonda, chavandozlar aniqlanmishi esa ko‘plik sonda turibdi. Ammo bunda

aniqlanmishning qay tarzda kelganligi muhim hisoblanib, umumiy ko‘plik manosi tushuniladi.

Arab tilida esa aksincha, aniqlanmishning qay tarzda kelganli har doim aniqlovchiga ta’sir qiladi. Buni misollar vositasida tahlil qilib qarab chiqamiz.

Oqil ismlarda:

Son	Muannas	Muzakkar
Birlik	صديقة قريبة المدرسة الجديدة	صديق قريب التاجر الغني
Ikkilik	صديقتان قريبتان المدرستان الجديدتان	صديقان قريبان التاجران الغنيان
Ko‘plik	صديقات قريبات المدرسات الجديدات	أصدقاء أقرباء التجار الأغنياء

G‘ayrioqil ismlarda:

Son	Muannas	Muzakkar
Birlik	دراجة صغيرة هذه المجلة	بيت جميل هذا القميص
Ikkilik	درجتان صغيرتان هتان المجلتان	بيتان جميلان هذان القميصان
Ko‘plik	درجات صغيرة هذه الهمجلات	بيوت جميلة هذه القمصان

Jadvaldan ko‘rinib turganidek, aniqlovchi va aniqlanmish birikuvida ismlar oqil ya’ni jonli va g‘ayrioqil ya’ni hayvonlar va jonsiz predmet turlariga ajratiladi. Bunday vaqtda g‘ayrioqil aniqlanmishning ko‘pligi uning jinsidan qat’iy nazar muannas birlikdagi aniqlovchiga teng bo‘ladi. Qolgan birlik va ikkilik sonlarning jinsida esa aniqlovchi va aniqlanmish bir-biriga mos holatda keladi. Agarda aniqlovchi ko‘rsatish olmoshlaridan iborat bo‘lsa, aniqlanmish aniq holatda keliladi. Aniqlanmish noaniq holatda kelsa, ega-kesim munosabati vujudga kelib so‘z birikmasi gapga aylanib qoladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, arab tili grammatikasi qurilishi jihatidan anchayin murakkab tuzilganligi sababli, ushbu tilni o‘rganishda kalimalarning asosini o‘zgartirish orqali turfa turkumdagi kalimalar hosil qilinishi, gapda so‘zlarning sintaktik munosabatga kirishish usullari va tartibi haqida yetarlicha ilmiy ma’lumotlarga ega bo‘lish muhimdir. Ayniqsa, bu tildagi jumalarning sintaktik qurilishi jarayonida ega va kesimning o‘zaro jinsda va shaxs-sonda mutanosib bo‘lishidan tashqari aniqlovchi va aniqlanmish munosabatlarida ham har tomonlama moslashish qoidalariga rioya etilishi shart. Ya’ni aniqlovchi o‘zi aniqlab kelayotgan aniqlanmish ismning soniga, kelishigiga, holatiga hamda jinsiga mos holatda bo‘ladi.

Moslashgan aniqlovchili birikuvda kalimalarning shaxs-soniga e'liborli bo'lish kerak. Muzakkar va muannas ismlarning birlik, ikkilik va ko'plik sonlari alohida shakllarga egaligi tufayli ularni bir-biridan farqlash hamda amaliyotda to'g'ri qo'llay bilish ushbu til iste'molchilarining muloqot jarayonidagi yoki ilmiy, umuman olganda, har qanday vaqtda manfaatlari uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. An-Naim arabcha-o'zbekcha lug'at. –Toshkent, 2003.
2. B.Z. Xalidov. Arab tili darsligi. – Toshkent, 2007. –344b.
3. E. Talabov. Arab tili. – Toshkent, 1993. – 410b.
4. N. Erkaboyeva. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. – Toshkent, 2019. – 495b.
5. N. Ibrohimov, M. Yusupov. Arab tili grammatikasi. I jild. – Toshkent, 1997. – 453b.
6. 2006 الدروس النحوية محمد الانبائي شيخ الجامع الازهر الكويت